

TIJORAT BANKLARNING BUGUNGI KUNDAGI FAOLIYATINING HOLATI VA UNING TAHLILI

*Jarilkapova Naubaxar Paraxat qizi
Qoraqalpoq davlat universiteti Iqtisodiyot
fakulteti 4-kurs moliya va moliyaviy
texnologiyalar ta'lim yo'nalishi talabasi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada tijorat banklarining hozirgi kundagi iqtisodiy jarayonlardagi o'rni, ularning asosiy faoliyat yo'nalishlari, moliyaviy xizmatlar bozori rivojlanishiga qo'shayotgan hissasi hamda yuzaga kelayotgan muammolar yoritilgan. Shu bilan birga, bank sektoridagi raqobatning kuchayishi, raqamli texnologiyalar joriy etilishi va mijozlarga xizmat ko'rsatish sifati tahlil qilingan. Maqolada shuningdek, O'zbekistonda tijorat banklari faoliyatining statistik ko'rsatkichlari asosida amaliy tahlil o'tkazilib, ularning moliyaviy barqarorligi va rivojlanish istiqbollari yuzasidan xulosalar berilgan.


Kalit so'zlar: Tijorat banklari, bank tizimi, moliyaviy xizmatlar, raqamli bankchilik, iqtisodiy tahlil, kreditlash, bank ishi, moliyaviy barqarorlik, mijozlarga xizmat ko'rsatish, raqobatbardoshlik.

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasi moliya bozorida, shu jumladan, bank-moliya tizimida o'tkazilayotgan islohotlar natijasida zamonaviy jahon andozalariga va talablariga mos keladigan moliya-bank tizimi hamda bozor infratuzilmasi bosqichma-bosqich shakllantirilmoqda, moliya-bank sohasini yanada erkinlashtirishga qaratilgan qator qonunchilik tashabbuslari va ulardan kelib chiquvchi muhim chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida bank tizimi, uning xizmatlari va moliya bozorini isloh qilishni yanada chuqurlashtirish va barqarorligini oshirish, bank tizimiga aholi hamda xorijiy investorlarning ishonchini yanada mustahkamlash, axborotkommunikatsiya texnologiyalarini keng qo'llagan holda, ko'rsatilayotgan bank xizmatlarining turi va xizmatlar bozori ko'laming kengayib borishi hozirgi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

1-rasm

Naqd pul tushumlari hajmi va tarkibi dinamikasi (trln.so'mda)¹

¹ <https://bankers.uz/news/1025>




Markaziy bank 2022 yil uchun "Naqd pul muomalasi sharhi"ni taqdim qildi. Unga ko‘ra, 2022 yilda banklar orqali naqd pul aylanmasi hajmi 700,3 trln. so‘mni tashkil etgani holda, 2021 yilning mos davriga nisbatan 38,1 foizga oshgan. Jumladan, bank kassalariga naqd pul tushumlari 343,9 trln. so‘mni, o‘z navbatida, chiqim qilingan naqd pullar 356,4 trln. so‘mni tashkil etgan.

2022 yilda bank kassalariga jami naqd pul tushumlari 2021 yilga nisbatan 36,6 foizga oshgan bo‘lsa, savdo va xizmatlar sohasidan tushumlar 28,5 foizga (36,1 trln.so‘m) va bank xizmatlaridan naqd pul tushumlari 60,4 foizga (43,3 trln.so‘m) oshgan. Jami tushumlar tarkibida savdo va xizmatlar sohasidan tushumlar ulushi 3,0 foiz bandga kamaygan.

2022 yilda savdo va xizmatlar sohasidan jami tushumlar 259,0 trln. so‘mni tashkil qilib, shundan, 62,8 foizi (162,7 trln.so‘m) naqd shaklda, 37,2 foizi (96,3 trln.so‘m) terminallar orqali bank hisobraqamlariga kirim qilingan (2021 yilda 64,6 foizi naqd shaklda, 35,4 foizi terminallar orqali bank hisobraqamlariga kirim qilingan edi).


2-rasm

Savdo va xizmatlar sohasidan pul tushumlari tarkibi va dinamikasi (trln.so‘mda)



2022 yilda bank kassalaridan (shu jumladan, bankomatlardan) berilgan naqd pullar 2021 yilga nisbatan 39,5 foizga (100,9 trln.so'm) ko'paydi.

Mazkur holat bank kartalaridan naqd pul echish miqdorining 54,4 trln. so'mga (2021 yilga nisbatan o'sish – 57,2%), banklar tomonidan aholidan naqd chet el valyutasini sotib olish hajmlarining 18,1 trln. so'mga (o'sish – 28,3%) oshishi asosiy omil bo'lgan.



3-rasm: Banklardan naqd puldagi chiqimlar hajmi va ularning maqsadlari bo'yicha tarkibiy dinamikasi (trln.so'mda)²

Shuningdek, 2022 yilda bank kartalariga kirim qilingan mablag'lar 2021 yilga nisbatan 1,8 barobarga (253,9 trln.so'mga) oshib, 553,6 trln. so'mni tashkil qildi. Jumladan, 178,2 trln.so'mi – pensiya, nafaqa va ish xaqi to'lovlari, 182,3 trln.so'mi – kartadan kartaga o'tkazmalar (shu jumladan, xalqaro pul o'tkazmalar orqali), 112,5

² <https://bankers.uz/news/1025>

trln.so'mi – naqd pulda va omonat hisobvaraqlardan bank kartalariga kirim qilingan mablag'lar hissasiga to'g'ri kelgan.

Ushbu davrda bank kartalaridagi 149,5 trln. so'mlik mablag'lar aholi tomonidan naqdashtirib olingan bo'lib, bu kartalarga kelib tushgan mablag'larning 27,0 foizini tashkil etdi.

4-rasm

Bank kartalariga kelib tushgan mablag'lar va ularni naqdashtirish hajmlari dinamikasi (trln.so'mda)



Banklarga tushgan naqd pullarning ularga bo'lgan talab o'rtaсидаги farq Markaziy bank tomonidan muomalaga qo'shimcha naqd pullarni chiqarish orqali ta'minlab borildi. Xususan, Markaziy bank tomonidan 2022 yil davomida qo'shimcha 16,2 trln. so'm naqd pullar muomalaga chiqarildi. Ushbu naqd pullarning 15,7 trln. so'mi naqd pulga bo'lgan talab keskin oshgan davr – aprel-iyul oylariga to'g'ri keladi.

5-rasm

Muomaladagi naqd pullarning pul massasidagi ulushi dinamikasi



Bank tizimi samaradorligini va banklarning moliyaviy barqarorligini oshirish, shuningdek bank xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish hamda bank tizimida davlat ulushini kamaytirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2020–2025-yillarda O‘zbekiston Respublikasi bank tizimini isloh qilish Strategiyasi to‘g‘risida” farmoni qabul qilindi. Ushbu Farmonga muvofiq, Ipoteka bank, O‘zsanoatqurilishbank, Asakabank, Aloqa bank, Qishloq Qurilish bank va Turon bankni xususiyashtirish to‘g‘risida qaror qabul qilindi. 2020-yilda strategiyani amalga oshirish doirasida Xalqaro moliya korporatsiyasi (IFC) Ipoteka bankka bankni xususiyashtirishni qo‘llab-quvvatlash va kichik va o‘rtacha biznesga kreditlarni ko‘paytirish uchun o‘zbek so‘mida 35 mln. AQSh dollari miqdorida kredit ajratdi. Bundan tashqari, “O‘zsanoatqurilishbank” transformatsiya dasturini amalga oshirishni boshladi. Bank o‘zining biznes modelini tijoratlashtirish va korporativ boshqaruvni isloh qilish bo‘yicha birinchi qadamlarni qo‘ydi. 2020-yilda “O‘zsanoatqurilishbank” va Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki o‘rtasida mahalliy ishlab chiqaruvchilar, eksportyorlar, kichik va o‘rtacha biznesni moliyalashtirish uchun 40 mln. dollar miqdorida kredit liniyasini jalb qilish to‘g‘risida kredit shartnomasi imzolandi. Bank anderayting joriy etdi va bu kreditlash operatsiyalarini xodimning ishtirokisiz amalga oshirishga imkon beradi. Pandemiya va O‘zbekistonda joriy qilingan lokdaun masofaviy bank xizmatlarini jadal rivojlanishiga yordam berdi. Xusan, 2021-yil 1-yanvar holatiga masofaviy xizmatlardan foydalanuvchilar soni 14,5 mln. kishini tashkil etdi (shundan 13,7 mln kishi jismoniy shaxslar, 822 ming kishi tadbirkorlik sub’yektlari) bu o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 30 foizga ko‘proqdir. Markaziy bank tomonidan raqamli banklar va fiiallarning ishlashiga litsenziya berilishi ham bank-moliya tizimini yanada raqamlashtirishga turki bo‘ldi va mijoz va bank o‘rtasidagi munosabatlarda zamonaviy yondashuvlarni vujudga kelishiga sabab bo‘ladi, innovatsiyalar, fantexnika taraqqiyotini jadallashtiradi va shu asosda xalq farovonligini yanada oshirishga xizmat qiladi. O‘zbekiston moliya bozorini yanada

rivojlantirish va barqarorligini oshirish uchun quyidagi ishlarni olib borish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

- jahon amaliyoti talablariga muvofiq O‘zbekiston moliya bozori faoliyatini tartibga solish, nazorat qilish va barqaror rivojlanishini ta’minlash, shuningdek, moliyaviy xizmatlar bozori ishtirokchilari va investorlarining huquqlarini himoya qilishning qonunchilik asoslarini yanada takomillashtirish;
- jahon standartlari talablariga muvofiq moliya bozorini yanada erkinlashtirish, uning barqarorligi va kapitallashuv darajasini oshirish;
- mamlakatimiz moliya bozori raqobatbardoshligini mustahkamlash va uning yangi segmentlarini shakllantirish;
- O‘zbekistonda iqtisodiy o‘sishni ta’minlash, shuningdek, ustuvor ijtimoiy-iqtisodiy dasturlarni amalga oshirish uchun resurslarni shakllantirish, investitsiyalarni jalb qilish hamda sohalar va korxonalar o‘rtasida samarali kapital oqimini tashkil etishda moliya bozori salohiyatidan yanada keng foydalanish;
- tijorat banklari va nobank moliya institutlarining investitsion faolligini yanada kuchaytirish hamda iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va investitsion loyihalarni moliyalashtirishdagi ishtirokini yanada kengaytirish;
- moliya bozorini yanada rivojlantirish hamda mablag‘lardan samarali foydalanish maqsadida moliya bozorida hisob-kitob, kliring tizimi barqarorligini oshirish va unga zamonaviy xalqaro tajribalarni joriy etish;
- moliya bozorida innovatsiyalarni yaratish maqsadida moliyaviy aktivlar sekyuritizatsiyasi uchun zaruriy shart-sharoitlarni yaratish;
- moliya bozoridagi likvidlilikni tartibga solish maqsadida REPO, SVOP operatsiyalarini yanada rivojlantirish;
- moliya bozorida faoliyat yurituvchi moliya institutlari tomonidan xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish hamda zamonaviy moliyaviy xizmatlar ko‘lamini yanada kengaytirish.

Milliy iqtisodiyotimizni modernizatsiya qilishda mamlaktimizda shakillanib borayotgan qimmatli qog‘ozlar bozori salohiyatidan ichki va tashqi investitsiyalarni jalb etishning ishonchli vositasiga aylantirish muhim ahmayatga ega. Bu borada, quyidagilarni taklif etamiz:

- tijorat banklari tomonidan obligatsiyalar va depozit sertifikatlarni muomalaga chiqarish bilan bog‘liq bo‘lgan jarayonlarni yanada soddallashtirish va ularning emitentlar hamda investorlar uchun jozibadorligini oshirish;
- bazel qo‘mitasining yangi tavsiyalariga muvofiq bank kapitali tarkibida barqaror elementlar, ya’ni oddiy aktsiyalar salmog‘ini ortirish;
- qimmatli qog‘ozlar ikkilamchi bozorini faollashtirish, subordinar qarzning hajmlarini kengaytirish;

Bugungi kunda tijorat banklari iqtisodiyotni moliyaviy resurslar bilan ta'minlashda muhim rol o'ynamoqda. Ularning faoliyati mamlakatning moliyaviy barqarorligini ta'minlash, kreditlash jarayonlarini rivojlantirish, investitsiya loyihamalarini qo'llab-quvvatlash va aholiga keng ko'lamli bank xizmatlarini ko'rsatish orqali milliy iqtisodiyotga sezilarli hissa qo'shmoqda. So'nggi yillarda raqamli texnologiyalarning joriy etilishi, bank xizmatlari sifatining oshirilishi va mijozlar ehtiyojlariga moslashtirilgan mahsulotlarning yaratilishi bank tizimining raqobatbardoshligini yanada kuchaytirmoqda.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, tijorat banklarining moliyaviy barqarorligi va foydaliligi ularning samarali boshqaruv tizimiga, risklarni boshqarish siyosatiga va mijozlar bilan aloqalarning darajasiga bevosita bog'liq. Shu bilan birga, banklar oldida turli muammolar — aktivlar sifati, likvidlik darajasi, inflatsiya bosimi va xalqaro moliyaviy bozorlar ta'siri kabi tahdidlar mavjud. Kelgusida banklar o'z faoliyatini yanada takomillashtirish, innovatsion yondashuvlarni keng joriy etish va barqaror rivojlanishni ta'minlash orqali iqtisodiyotning barqaror o'sishiga xizmat qilishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008.
2. Xodjayev N., Qodirov A., Murodov Yo. Bank ishi. – T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2022.
3. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy veb-sayti: www.cbu.uz
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori PQ-5611сон, 24.01.2020-yil "Bank tizimini isloh qilish va moliyaviy barqarorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida".
5. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan qabul qilingan "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonun (yangi tahrirda).
6. Djalilov J. et al. (2021). Bank Performance and Efficiency in Emerging Markets: Evidence from Central Asia. – Journal of Banking and Finance Research.
7. Murodov D. (2020). Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda zamonaviy yondashuvlar. – Moliyaviy tadqiqotlar jurnali, №2.
8. IMF (International Monetary Fund) Reports on Uzbekistan's Financial Sector, 2023.
9. Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari: www.stat.uz
10. O'zbekiston banklari assotsiatsiyasi materiallari va statistik sharhlari.